

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.R.Shermatov, B.D.Abdikaxorov	
Zararkunanda tangachaqanotilar populyatsiya zichligini monitoring qilish uslublari	333
M.R.Shermatov	
Farg'ona vodiysi agroekotizimlari metall tusli tunlamlari (Lepidoptera, Noctuidae, Plusiinae)	338
B.M.Sheraliyev	
Dukentsoy daryosi ixtiofaunasining hozirgi tur tarkibi	343
B.Sh.Sheraliyev, O.S.Azamov, M.M.Raxmonov, Sh.A.Xalimov	
Isfayramsov daryosi quyi oqimi ixtiofaunasining hozirgi tur tarkibi	347
E.X.Najmuddinov, X.Z.To'ychiyeva	
Farg'ona vodiysi suv omborlarida uchraydigan baliqlar gelmintofaunasi	353
E.X.Najmuddinov	
Farg'ona vodiysi baliqchilik xo'jaliklarida yetishtiriladigan baliqlar gelmentofaunasi.....	357
E.X.Najmuddinov	
Oq do'ngpeshona balig'i gelmintoz kasalliklariga qarshi antigelmintik preparallarni qo'llash usullari	360
M.M.Yunusov, M.M.Abdughalimova	
Shiralarning qishki tinim holati.....	363
M.M.Yunusov, M.M.Abdughalimova	
Shiralar biologiyasidagi o'ziga xos xususiyatlari	366
M.M.Raxmonov, O.S.Azamov, B.M.Sheraliyev	
Shohimardonsov-Marg'ilonsoy daryosi ixtiofaunasining (Teleostei: Actinopterygii) yangilangan turlar ro'yxati va muhofaza maqomi.....	371
M.A.Axmadjonova	
Lixus bardanae J.C.Fabricius, 1787 (Coleoptera: Curculionoidae) turining Farg'ona vodiysida tarqalishi haqida	377
Sh.A.Xalimov, A.M.Inomov, B.M.Sheraliyev	
Farg'ona viloyati zovurlarida uchrovchi <i>Triplophysa strauchii</i> (Kessler, 1874) ning uzunlik va og'irlik munosabatlari	381
Sh.A.Xalimov	
Farg'ona vodiysi suv havzalarida uchrovchi <i>Triplophysa strauchii</i> (Kessler, 1874) ning tarqalishi va geoaxborot ma'lumotlari	387
Sh.B.Yo'Idashev	
O'zbekiston gerpetofaunasining tur tarkibi	393
Ahmadjonova Sadoqatxon, S.A.Adxamova	
Markaziy Farg'ona hududida tarqalgan o'rgimchak turlarining sistematik tahlili va ro'yxati	399
S.Sh.Axmadjonova	
Ayrim ov to'ri hosil qilmaydigan o'rgimchak oilalarining biologik hususiyatlari.....	403
S.Sh.Axmadjonova	
Spilberger – xanin testi orqali talabalarning nerv zo'riqishlarini aniqlash	407
B.X.Baxromova	
Farg'ona vodiysi o'rgimchaklarining molekulyar identifikasiysi natijalari	411
B.X.Baxromova	
O'rgimchak turlarini aniqlashda tutqich to'rlarini ahamiyati	417
B.X.Baxromova, N.G.Odilova	
Farg'ona vodiysida uchrovchi o'rgimchak oilalaridan Thomisidae oиласига kiruvchi muhim turlarning biologiyasi	422
E.A.Botirov	
Catocala elocata (Esper, 1788) kapalagining (Lepidoptera: Eribidae) morfoloyigasi va bioekologik xususiyatlari	427
E.A.Botirov	
Arctia caja (Linnaeus, 1758) kapalagining (Lepidoptera: Eribidae) morfoloyigasi va bioekologik xususiyatlari	430
S.M.Isag'aliyeva	
Tabiiy fanlarda funksional topshiriqlar	434



UO'K: 595.787

**CATOCALA ELOCATA (ESPER, 1788) KAPALAGINING (LEPIDOPTERA: ERIBIDAE)
MORFOLOGIYASI VA BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**МОРФОЛОГИЯ И БИОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ CATOCALA ELOCATA
(ESPER, 1788) (LEPIDOPTERA: ERIBIDAE)**

**MORPHOLOGY AND BIOECOLOGICAL FEATURES OF CATOCALA ELOCATA
(ESPER, 1788) (LEPIDOPTERA: ERIBIDAE)**

Botirov Elyor Arabboyevich 
Farg'onan davlat universiteti, katta o'qituvchi

Annotatsiya

Erebinae kenja oilasi dunyo bo'ylab 10000 ga yaqin turlarni birlashtiradi. Ushbu kenja oilaga mansub Catocala elocata kapalagini o'rganish ishlari 2022-2024 yillar davomida Markaziy Farg'onanining Yozyovon hududida joylashgan "Tabiat yodgorligi" va Janubiy Farg'onanining Farg'ona tumani Vodil hududida olib borildi. Catocala elocata kapalagi Markaziy va janubiy Farg'ona hududidan ilk bor qayd etildi. Catocala elocata monovoltin tur bo'lib, kapalaklarining uchish vaqtiga iyun-oktyabr oyalariga to'g'ri keladi. Qurtlarining faol davri may-iyun. Qurtlari Populus, Salixlar kabi o'simliklarning barglari bilan oziqlanib, zarar keltiradi. Ozuqa ixtisosligiga ko'ra keng oligofag, mezofil ekologik guruhga mansub, yozgiz-kuzgi tur. Kuz mavsumining ikkinchi yarmidan boshlab tuxumlik bosqichida qishlab qoladi.

Аннотация

Подсемейство *Erebinae* включает около 10 000 видов по всему миру. Изучение бабочки *Catocala elocata*, принадлежащей к этому подсемейству, проводилось в 2022-2024 годах в «Памятнике природы», расположенному в Ежиковонском районе Центральной Ферганы и Водильском районе Ферганского района Южной Ферганы. Бабочка *Catocala elocata* впервые отмечена в Центральной и Южной Ферганской областях. *Catocala elocata* — моновольтинный вид, бабочки которого летают с июня по октябрь. Активный период червей — май-июнь. Черви питаются листьями таких растений, как *Populus* и *Salix*, и наносят им вред. Летне-осенний вид, относящийся к широкой олигофагической, мезофильной экологической группе по пищевой специализации. Зимует в стадии яйца со второй половины осеннего сезона.

Abstract

*The subfamily Erebinae contains approximately 10,000 species worldwide. The study of the butterfly Catocala elocata, belonging to this subfamily, was carried out in 2022-2024 in the "Nature Monument" located in the Ezhiovovsky district of Central Fergana and the Vodilsky district of the Fergana district of Southern Fergana. The butterfly Catocala elocata was recorded for the first time in the Central and Southern Fergana region. Catocala elocata is a univoltine species whose butterflies fly from June to October. The active period of worms is May-June. The worms feed on and damage the leaves of plants such as *Populus* and *Salix*. A summer-autumn species belonging to a broad oligophagic, mesophilic ecological group in terms of food specialization. Overwinters in the egg stage from the second half of the autumn season.*

Kalit so'zlar: *Erebinae, Catocala elocata, monovoltin, ozuqa ixtisosligi, oligofag, mezofil, yozgi tur.*

Ключевые слова: *Erebinae, Catocala elocata, моновольтин, пищевой специализация, олигофаг, мезофилл, летний вид.*

Key words: *Erebinae, Catocala elocata, monovoltine, food specialization, oligophagus, mesophyll, summer species.*

KIRISH

Erebidae Lepidoptera turkumining eng xilma-xil oilalaridan biri bo'lib, 25 000 ga yaqin tasvirlangan turlarga ega. Mazkur oilaga mansub Erebinae kenja oilasi dunyo bo'ylab 10000 ga yaqin turlarni birlashtiradi. Tunlamsimon kapalaklar katta oilasi orasida mazkur turlarning ko'pchiligi yaxshi o'rganilmagan. Kapalaklari yirtqichlardan himoyalananish uchun o'ziga xos moslanishlar, shu jumladan, sezgir eshitish organlari va yirtqichlarni qo'rqiuvchi ajoyib qanot ranglariga ega. Bu kenja oilaning qurtlari iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab o'simliklar bilan oziqlanib, zarar keltiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

N.Homziak, J.Breinholt, A.Kawaharalar tomonidan Erebinae kenja oilasining tarixiy tasnifi hamda yangilangan RO'YXATI, shuningdek, morfologik xususiyatlari yaxshi o'rganilgan [5]. A.Kuniyil va A.Peter tomonidan Hindistonning Eribinae faunasiga 65 avlodga mansub 250 ta tur kiritilgan[6].

X.Bekchanovning (2023) Shimoliy-G'arbiy O'zbekistonning tangachaqanotli hasharotlar faunasiga bag'ishlangan tadqiqotlari tabiiy hamda antropogen ekotizimlar misolida olib borilgan bo'lib, mazkur ishlarning natijalarida *Catocala elocata* turining tadqiqot hududida uchrashiga oid ma'lumot mavjud [1].

TADQIQOT OBYEKTI VA USLUBLARI

Catocala elocata kapalagini o'rghanish ishlari 2022-2024 yillar davomida Markaziy Farg'onaning Yozyovon hududida joylashgan "Tabiat yodgorligi" ($40^{\circ}39'43.3"N$ $71^{\circ}28'33.9"E$) va Janubiy Farg'onaning Farg'ona tumani Vodil hududida ($40^{\circ}10'39.6"N$ $71^{\circ}42'57.8"E$) olib borildi (1-rasm). Kapalaklarni yig'ish asosan kechalari tungi yoritgichli moslama yordamida amalga oshirildi. Yig'ilgan kapalaklarni erkak va urg'ochi individlaridan 2 tadan na'munasi ajratib olinib, kolleksiya tayyorlandi. Yig'ilgan materiallarni aniqlashda entomologik aniqlagichlar va elektron kataloglardan foydalanildi [2; 3; 4; 7].



1-rasm. Markaziy Farg'ona tabiat yodgorligi hamda Vodil qishlog'i hududlari

Olingan natijalar. Olib borilgan tadqiqotlar hamda yig'ilgan namunalar asosida *Catocala elocata* kapalaginining ozuqa o'simligi, morfologiyasi va biologik xususiyatlari o'rGANILDI.

Taksonomik o'rni:

Oila: Eribidae Leach, 1815

Avlod: *Catocala* Schrank, 1802 **avlod**

Tur: *Catocala elocata* (Esper, 1788)

Sinonimlari:

Noctua elocata Esper, 1787

Noctua marita Hubner, (1813)

Noctua nurus Hübner, (1822)

Catocala elocata var. *locata* Staudinger, (1892)

Catocala elocata kapalagi Markaziy va janubiy Yevropa, Shimoliy Afrika, Markaziy Osiyoda, Qozog'istonda keng tarqalgan [1]. O'zbekistonda Xorazm vohasida uchrashi (2023) qayd etilgan [1]. Bizning tadqiqotlarimiz natijasida Farg'ona vodiysining markaziy hududi Yozyovon tumani cho'llari (tabiat yodgorligi hududi) hamda janubiy hududidan – Farg'ona tumanining tog' oldi hududlarida ilk marotaba qayd etildi.

Aniqlangan joyi va muddati: Farg'ona tumani Vodil qishlog'i aholi tomorqasi ♂1; ♀1 (**E.Botirov, O.Qayumova, 08.10.2023**), Yozyovon tumani tabiat yodgorligi hududi ♂1; ♀1 (**E.Botirov, 15.06.2023**).

Ozuqa o'simliklari: Terak (*Populus* L., 1753); Tol (*Salix* L., 1753,).

Qisqacha morfologik tavsifi: Kapalaginining tanasini uzunligi 35 mm, mo'ylovlarinining uzunligi 15 mm, oldingi qanotining uzunligi 40 mm, kengligi 22 mm, orqa qanotining uzunligi 32 mm, kengligi 26 mm. Kapalak qanotlarini yozganda kengli 80 mm ni tashkil etadi.

BIOLOGIYA

Oldingi qanotlari jigarrang-kulrang rangga ega bo'lib, ko'plab to'lqinli ko'ndalang chiziqlar va murakkab naqshlarni hosil qiladi. Qanotlarning chetlari ham notejis to'lqinsimon shaklda. Oldingi qanotining markazidan o'tgan ko'ndalang qoramitir-jigarrang hoshiya orasida buyrak shaklidagi to'q qoramitir belgisi mavjud. Orqa qanotlari qizil, keng va qora tasma shaklidagi dog'lari bor. Orqa qanotlarining cheti oq rangda (2-rasm).



2-rasm. *Catocala elocata* Esper, 1788 (Original rasm)

Biologiyasi. *Catocala elocata* monovoltin ya'nini bitta avlod berib rivojlanadigan tur hisoblanib, kapalaklarining uchish vaqtini iyun-oktyabr oylariga to'g'ri keladi. Qurtlarining faol davri may-iyun. O'simliklardan *Populus*, *Salix*larning barglarini zararlaydi. Ozuqa ixtisosligiga ko'ra keng oligofag, mezofil ekologik guruhga mansub, mavsumiy aspektiga ko'ra yozgi-kuzgi tur. Kuz mavsumining ikkinchi yarmidan boshlab tuxumlik bosqichida qishlab qoladi.

XULOSA

Catocala elocata kapalagi Markaziy va janubiy Farg'ona hududidan ilk bor qayd etildi. *Catocala elocata* monovoltin tur bo'lib, kapalaklarining uchish vaqtini iyun-oktyabr oylariga to'g'ri keladi. Qurtlarining faol davri may-iyun. Qurtlari *Populus*, *Salix* kabi o'simliklarning barglari bilan oziqlanib, zarar keltiradi. Ozuqa ixtisosligiga ko'ra keng oligofag, mezofil ekologik guruhga mansub, yozgi-kuzgi tur. Kuz mavsumining ikkinchi yarmidan boshlab tuxumlik bosqichida qishlab qoladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. X.O'Bekchanov "Shimoliy-G'arbiy O'zbekistonning tangachaqanotlilar (Insecta, Lepidoptera) faunasi va ekologiyasi"// Biol. fan. dokt. diss. (DSc).-Toshkent.-2019. - B. 320
2. Botirov E.A. Janubiy Farg'ona agrotsenozlari tunlam kapalaklari (Lepidoptera: Noctuidae) faunasi va ekologik xususiyatlari //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 5. – P. 1276-1283.
3. Botirov E.A. "Janubiy Farg'onaning *Agrotis* avlodni tunlam kapalaklari faunasi va ekologik xususiyatlari"// FarDU. Ilmiy xabarlari. 2023. №.2. –B. 173-178.
4. Botirov E.A. "Фауна и экологические особенности бабочек совок (Lepidoptera: Noctuidae) агроценозов Южной Ферганы"// The Way of Science International scientific journal, Volgograd. 2023- №3 (109), -P. 4-8.
5. Kuniyil, A. P. ., Peter, A.. A checklist of Erebinae (Lepidoptera, Erebidae) from India. ENTOMON, 2022.- №.47(4). – P. 425-432.
6. Homziak NT, Breinholt JW, Kawahara AY. A historical review of the classification of Erebinae (Lepidoptera: Erebidae). 2016. Zootaxa 4189. -P. 2-41. DOI: [10.11646/zootaxa.4189.3.4](https://doi.org/10.11646/zootaxa.4189.3.4)
7. Shermatov M.R., Botirov E.A. "Tunlam kapalaklarning (Lepidoptera: Noctuoidea) ozuqa spektriga oid". //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2022. – T.10. – №.11. – P. 78-84.